

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YULDASHEV AZIZ UZGENOVICH

**RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA PREDIKATSIYANING
LINGVISTIK JIHATI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

UO‘K: 811.161.1,367.332.7
811.512.133,367.332.7

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Yuldashev Aziz Uzgenovich

Rus va o‘zbek tillarida predikatsiyaning lingvistik jihati..... 3

Юлдашев Азиз Узгенович

Лингвистический аспект предикации в русском и узбекском языках..... 23

Aziz Uzgenovich Yuldashev

Linguistic Aspects of Predication in Russian and Uzbek Languages..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

YULDASHEV AZIZ UZGENOVICH

**RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA PREDIKATSIYANING
LINGVISTIK JIHATI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Fil619 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Djumanova Dilbar Raximovna filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Teshabayeva Dilfuza Mo'minovna filologiya fanlari doktori, professor Nurmuxamedova Dilbar Faruxovna filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «22» avgust soat 11 30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «7» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil «7» avgust dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.X. Bakiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan millatlararo muloqot to'rsiqlarining bartaraf etilishi tufayli, predikatsiyani axborotni bayon etish va aktuallashtirish, global mantiqiy jihati sifatida o'rganish, bir tomondan, turli xalqlarning dunyoni idrok etish usuli va dunyoqarashining noyob aksi sifatida dolzarblashishi, boshqa tomondan, dunyoning milliy lingvistik manzarasini tadqiq qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etayotgani hamda ko'p tizimli tillarda predikatsiyani o'rganishga nisbatan lingvokulturologik yondashuvni qo'llashning dolzarbligi va zaruriyati belgilanadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida predikatsiya nazariyasi predikativ birliklarning statik xususiyatlarini tavsiflashdan nutqning kommunikativ ko'lami, xususan, muloqotning milliy-madaniy konteksti bilan bog'liq modifikatsiyalari dinamikasini tahlil qilishga qarab o'zgarimoqda. Dinamik predikatsiya konsepsiyasi ilmiy fikrning yangi yo'nalishlaridan biri hisoblanib, uning tadqiqot obyekti dunyoni konseptuallashtirish asosida nutqning paydo bo'lishi-idrok etilishi asosi sifatida predikativ o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi, bu ayniqsa turli etnik hamjamiyat vakillari lingvistik dunyoqarashining milliy-madaniy o'ziga xos jihatlarini belgilash kontekstida dolzarbdir.

“So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi”¹, shu munosabat bilan o'zbek va xorijiy tillarini qiyosiy-tipologik o'rganishga, jumladan, faoliyatni tartibga solishda aniqlanadigan predikativ strukturalarni o'zgartirish, milliy-madaniy bilimlarni chuqurlashtirish, olam asoslarini talqin qilish muammolariga qiziqish ortdi, bu o'z navbatida, o'zbek tilshunosligida predikativlikni lingvokulturologik jihatdan o'rganishning dolzarbligi va ustuvorligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6097-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmonlarida hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Rus tili predikatsiyasi kategoriyasini o‘rganishga: S.D. Katsnelson, N.D. Arutyunova, P.A. Lekant, Yu.S. Stepanov, G.A. Zolotova, N.Yu. Shvedova, T.G. Nikolayeva² va boshqalarning ishlarida alohida e‘tibor qaratilgan, o‘zbek tili predikatsiyasi tadqiqi bilan N.Maxmudov, A.Nurmonov, M.Mirtojiyev, M.Sh. Mamatov³ va boshqalar shug‘ullanishgan.

Xususan, predikatsiya predikativlikning paydo bo‘lish vositalari, predikatlarining tuzilishi va semantik xususiyatlari⁴, predikativ modallik, uning turlari va verbalizatsiya vositalari⁵, ma’no tipologiyasi⁶ va boshqa nuqtai

²Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – М.: URSS, 2009. – 218 с.; Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. Логико-семантические проблемы. – М.: Едиториал УРСС, 2003. – 383 с.; Лекант П.А. Синтаксис простого предложения в современном русском языке. – М.: Высшая школа, 2004. – 247 с.; Степанов Ю.С. Имена. Предикаты. Предложения: Семасиологическая грамматика. – М.: URSS, 2021. – 360 с.; Золотова Г.А. Синтаксический словарь. Репертуар элементарных единиц русского синтаксиса. – М.: Едиториал УРСС, 2006. – 440 с.; Шведова Н.Ю. Русский язык: избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – 638 с.; Николаева Т.Г. Предложения английского языка с конструкциями незавершённой предикации: семиологический подход: Дисс. ...докт. филол. наук. – Самара, 2019. – 392 с.

³ Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995, 173-b.; Mirtojiyev M. Gap bo‘laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. – Toshkent: Universitet, 2008. – 200 b.; Mamatov M. Sh. O‘zbek tilining oddiy jumlasida tarkibidagi ikkilamchi predikat: Diss... filol. fanlari dokt.- Toshkent, 1990. 390 b.

⁴ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – 653 с.; Ильина Н.В. Структура и семантика оценочных конструкций. – М.: Русский язык, 1982. – 84 с.; Апресян Ю.Д. Типы соответствия семантических и синтаксических актантов // Проблемы типологии и общей лингвистики. Международный конгресс, посвященный 100-летию А.А. Холодовича: Сб. науч. тр. – СПб.: Нестор-История, 2006. – С. 15-27; Иванова Л.П. Структурно-функциональный анализ простого предложения. – Киев: Выща школа, 1991. – 180 с.; Невская И.А. Результативные второстепенные предикаты в тюркских языках // Сибирский филологический журнал, 2015. – № 2. – С. 84-93; Джураев Ш.Т. Односоставные определенно-личные предложения в русском и узбекском языках (к проблеме двуязычия) // Вестник современной науки, 2016. – № 1-2 (13). – С. 21-23; Абдурахманов Ф.И. Сопоставительный анализ структурно-семантических особенностей трехкратных глаголов в русском и узбекском языках // Вестник Калмыцкого университета, 2019. – № 3 (43). – С. 36-47.

⁵Лекант П.А. К вопросу о модальных разновидностях предложения// Очерки по грамматике русского языка. – М.: Изд-во МГОУ, 2002. – С. 102- 113; Дешериева Т.И. О соотношении модальности и предикативности // Вопросы языкознания, 1987. – № 1. – С. 14-19; Церцвадзе М.Г. Виды модальных значений и средства их выражения в современном русском языке. – Кутаиси. 2009. – 79 с.; Соловьева О.Н. Предикативный потенциал двусоставных предложений с компонентом оценочной модальности: Дисс. ...канд. филол. наук. – Оренбург, 2016. – 150 с.; Якубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантик ва тилда ифодаланиш хусусиятлари: филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2006. – 307 б.

⁶ Бульгина Т.В. К построению типологии предикатов в русском языке // Семантические типы предикатов. – М.: Наука, 1982. – С. 7-85; Леонтьева Е.А. Семантический признак как ключевой параметр типологии предикатов (на материале английского и русского языков) // Культура народов Причерноморья, 2006. – № 76. – С. 122-128; Градская Т.В. Семантическая классификация глагольных предикатов произвольного звучания (на материале английского языка) // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2008. – № 7. – С. 95-100; Волкова Н.В. Семантические типы предикатов английского глагола to see в значении умственной деятельности // Вестник Башкирского университета, 2008. – Вып. 3. – №. 2. – С. 307-310; Гриднева Н.Н. Основы семантики синтаксиса. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2009. – 48 с.; Иванова Е.Ю. Семантическая типология предикатов в сопоставительном аспекте: предикаты «свойств» в русском и болгарском языках // Болгарская русистика, 2009. – № 3-4. – С. 5-17; Калмыкова Г.А.

nazarlardan ko‘rib chiqilgan. Umuman olganda, predikatsiya sintaksis kategoriyasi sifatida o‘rganilganda tadqiq etilayotgan hodisaning tarkibiy, mazmuniy, funksional, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini ajratiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab ilmiy asarlar mavjudligiga qaramay, turli tizimdagi tillarda, xususan, rus va o‘zbek tillarida predikatsiya hodisasining izomorfligi va allomorfligi muammosi lingvistik va lingvokulturologik nuqtai nazardan yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining «Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari» nomli ilmiy-tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiyaning tarkibiy-semantik, kommunikativ-funksional va lingvokulturologik jihatdan o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rus va o‘zbek tilshunosligida predikatsiya muammosining tadqiq etilganlik darajasini o‘rganish va uni o‘rganishdagi yondashuvlarni tavsiflash;

tadqiq etilayotgan tillardagi predikatsiyalarning tiplari va turlarini aniqlash;

mazkur tillardagi predikatsiyalarning tarkibiy-semantik va kommunikativ funksional xususiyatlarini tahlil qilish;

tadqiq etilayotgan tillardagi predikatsiyalarning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini yoritish;

rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiyalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiya hodisasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiyaning tarkibiy-ma’noviy, kommunikativ-funksional va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsif usuli, chog‘ishtirma usul, komponent va kontekstual tahlil usullari, transformatsion usul, lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rus va o‘zbek tillaridagi gap tuzish modellari va subyekt belgilarining predikat ma’nolariga aloqadorligining rang-barangligini ta’minlovchi predikativ ma’nolarni ifodalash tizimi ochib berilgan;

xabar yetkazish mexanizmiga va uning real yoki noreal vaqtda voqelikka aloqadorligini ifodalashga *ma’lumot – vaqt aniqligi – noaniqlik* shkalasi bo‘yicha ta’sir ko‘rsatuvchi predikatsiyaning tarkibiy-ma’noviy va kommunikativ-funksional xususiyatlari aniqlangan;

predikatlar tipologiyasi determinatsiyasi, shuningdek, ular ifodalagan subyekt sifatleri predikatning kategoriyaviy-grammatik xususiyatlari ko'lamiga hamda modellarning semantik va sintaktik nuqtai nazardan xilma-xilligiga bog'liqligi isbotlangan;

xalqning milliy-madaniy tajribasi va xulq-atvor modellari ta'siri ostida milliy dunyo manzarasi ta'sirida anglash asosida hosil bo'ladigan predikatsiyaning rus va o'zbek tillari uchun tillararo universalialar hamda milliy o'ziga xoslik belgilari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiq etilayotgan tillardagi predikatsiyaning tiplari va turlari tavsiflangan;

rus va o'zbek tillaridagi predikatsiyaning tarkibiy va ma'noviy xususiyatlari aniqlangan;

rus va o'zbek tillarida predikatsiyaning kommunikativ-funksional xususiyatlari ochib berilgan;

qiyoslanayotgan tillarda predikatsiyaning izomorf va allomorf xususiyatlari asoslab berilgan;

tadqiq qilinayotgan tillarda predikatsiyaning ifodalanishidagi milliy-madaniy o'ziga xosliklar yoritib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning ilmiy bazasi, metodologiyasi va metodikasi hamda yangi muammoli masalalarning qo'yilganligi yangi vazifalarning hal etilishi, shuningdek, rus va o'zbek tillaridagi predikatsiyani o'rganish natijalarining dissertatsiya ishining nazariy asoslariga mosligi hamda tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalarida rus va o'zbek tillaridagi predikatsiyaning tashqi (formal) va funksional-ma'noviy belgilari asoslab ko'rsatilgani, rus va o'zbek tilshunosligida predikatsiyani o'rganish masalasiga yondashuvlar tizimlashtirilgani, uning milliy-madaniy o'ziga xosligi ochib berilib, rus va o'zbek tillarida predikatsiyaning tarkibiy-semantik, kommunikativ-funksional va lingvokulturologik jihatdan izomorf va allomorf xususiyatlarga egaligi asoslab berilgani bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan umumiy va qiyosiy tilshunoslik, sintaksis, lingvokulturologiya bo'yicha ma'ruza va seminar kurslarini ishlab chiqish va o'tkazish, dissertatsiya ishlari, monografiyalar va o'quv adabiyotlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rus va o'zbek tillarida predikatsiyaning struktur-semantik, kommunikativ-funksional va lingvokulturologik jihatlarini ochib berishda olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida:

predikatning ma'nosi bilan o'zaro munosabatga ega gap mazmuni va subyektning belgilari modellari xilma-xilligini belgilovchi rus va o'zbek tillaridagi shartli belgilarni izohlovchi predikativ ma'nolar tizimi borasidagi hamda dunyoni

milliy jihatdan his qilish, xalqning milliy-madaniy tajribasi va uning xatti-harakatlari modellari predikatsiyasi tuzulishi ta'siri ostida yuzaga keluvchi rus va o'zbek tillaridagi predikatsiyaning tillaro uniyersalligi va milliy o'ziga xosligi borasidagi xulosa va natijalar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan OT-F1-030-sonli "O'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha ko'p jildli monografiyaning nashr etilishi" fundamental loyihada istifoda qilingan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 11-oktyabrdagi 32-32/5739-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, monografiya mazmuni gapning mohiyati va subyekt belgilari modellarining xilma-xilligiga oid ma'lumotlar bilan boyitilgan;

rus va o'zbek tillarida bayon etilgan predikativ ma'nolar tizimi, gap mazmuni va subyekt belgilari modellarining xilma-xilligi borasidagi dissertatsiya materiallari; axborot dolzarbligi mexanizmiga ta'sir qiluvchi predikatsiyaning struktur-semantik va kommunikativ-funksional xususiyatlari; predikatning kategorial-grammatik xususiyatlari ko'lami doirasida predikatlar tipologiyasining determinizmi; predikatsiyaning dunyoni milliy his qilish, xalqning milliy-madaniy tajribasi va ularning xulq-atvori modellari tuzilishiga ta'siri ostida yuzaga keladigan predikatsiyaning tillararo universalisasi va milliy o'ziga xosligiga doir xulosalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2020-2021-yillardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishni yangi darajaga ko'tarish va 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturining V yo'nalishiga binoan targ'ibot-tashviqot faoliyatida foydalanilgan (2021-yil 28-dekabrdagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi huzuridagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 02/02/1771-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot materiallari Dasturning V yo'nalishi 45-bandi bo'yicha tadbirlarni tashkil etishda manba bo'lib xizmat qilgan;

axborotning dolzarbligi hamda axborot – vaqtinchalik aniqlik – noaniqlik ko'rsatkichi bo'yicha real yoki noreal vaqtdagi voqelikka nisbatan uning munosabati ifodasi mexanizmiga ta'sir qiluvchi predikatsiyaning struktur-semantik va kommunikativ-funksional xususiyatlari, shuningdek, predikatlar tipologiyasining determinizmi va ular tomonidan ifodalanadigan predikatning kategorial-grammatik xususiyatlari doirasida subyektning tavsiflari hamda vaqt va makonda substansiya belgilarini ko'rsatadigan semantik-sintaktik predikativ modellarning xilma-xilligi borasidagi tadqiqot xulosalari va natijalari 2020-2022 yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida amalga oshirilgan "Erudit" innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2022-yil 27-sentyabrdagi 10/1803-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqot materiallari dastur, lug'at, elektron manbalar, nazariy va amaliy materiallarni ishlab chiqishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

axborotning dolzarbligi hamda real yoki noreal vaqtdagi voqelikka nisbatan uning munosabati ifodasi mexanizmiga ta'sir qiluvchi predikatsiyaning struktur-semantik va kommunikativ-funksional xususiyatlari, predikatlar tipologiyasining

determinizmi va ular tomonidan ifodalanadigan predikatning kategorial-grammatik xususiyatlari doirasida subyektning tavsiflari hamda vaqt va makonda substansiya belgilarini ko'rsatadigan semantik-sintaktik predikativ modellarning xilma-xilligi borasidagi tadqiqot materiallari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi harbiy oliy o'quv yurtlari uchun "Rus tili" fani bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2022-yil 27-sentyabrdagi 10/1803-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv dasturining mazmuni takomillashtirildi;

predikatlar tipologiyasining determinizmi, shuningdek, ular tomonidan ifodalanadigan predikatning kategorial-grammatik xususiyatlari doirasida subyektning tavsiflari hamda vaqt va makonda substansiya belgilarini ko'rsatadigan semantik-sintaktik predikativ modellarning xilma-xilligi borasidagi ilmiy natija, taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va ommalashtirish tizimini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"ni amalga oshirish bo'yicha tamalga oshirilgan tadbirlar doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 1-martdagi 01-12-05-782-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Dasturning 35-bandi mazmuni yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, ulardan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Rus va o'zbek tilshunosligida predikatsiyani o'rganishning zamonaviy holati**» deb nomlangan birinchi bobida predikativlikning kategorial belgilari aniqlangan, predikativ ma'nolarni shakllantirish vositalari o'rganilgan, predikatsiyani o'rganishga bo'lgan asosiy

yondashuvlar tavsiflangan, zamonaviy tilshunoslikda predikatlar tipologiyasi muammolari ko‘rib chiqilgan.

Predikativlik gapning umumiy mantiqiy belgisidir, u fikrga xos, u xabarni nutq orqali ifoda etishga qaratilgan bo‘ladi. Bu ma‘noda “predikativlik” tushunchasi borliqqa tegishlilik xususiyatiga ega bo‘lgan “predikatsiya” tushunchasiga tenglashtiriladi. Predikativlik bu gapga xos xususiyat bo‘lib, ushbu tushuncha ta‘rifida aytilishicha, u biror kontekstga grammatik vositalar yordamida subyektning zamon va makon o‘qidagi o‘rnini aks etiruvchi muvofiqlashtiruvchi chiziq bo‘ylab nutqiy muloqtni olib kirishni nazarda tutadi⁷.

Predikativlikni tadqiq qilishda zamonaviy tilshunoslik fanida mazkur hodisaga nisbatan bir nechta asosiy yondoshuvlarning mavjudligi ko‘rsatilgan: sintaksis nuqtai nazaridan; leksik nuqtai nazardan; funksional nuqtai nazardan.

Predikativlikni sintaktik nuqtai nazardan o‘rganish deyilganda, bizning fikrimizcha, unga zamon, modallik va shaxs kabi grammatik-kategorial semalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladigan gapning grammatik ma‘nosi o‘laroq qaralishini tan olish kerak. Gapda predikativlik mavjud ekan, gap orqali xabar qilinayotgan ma‘lumot voqelikka bog‘lanadi. Bunday yondashuv B.Rassel, E.Gus-serl, A.A.Potebnya, L.S.Vigodskiy, V.V.Vinogradov, V.A.Grechko va boshqalarning asarlarida ancha izchil ravishda kuzatilib, mazkur yondashuv predikativlikni formal (grammatik) va psixolingvistik yo‘nalishlarda tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Predikativlikni formal yondashuv orqali tadqiq etishda gapning kesimlilik jihati o‘rganiladi va natijada asosiy e‘tibor, ko‘pincha, kesimni ifodalashning eng keng tarqalgan vositasi bo‘lgan fe‘l kategoriyasiga qaratiladi. Odatda, predikativlikni formal yondashuv doirasida o‘rganish ega va kesim munozarasiga asoslanadi va shu bois bunda material sifatida, asosan, ikki bo‘lakli gaplardan foydalaniladi. Gapning o‘zi bu holatda formal-mantiqiy mulohaza yoki hukm hisoblanadi.

Predikativlikni psixolingvistik yondashuv asosida o‘rganish A.A. Potebnya ta‘limotiga borib taqaladi, bunda gap fikrning paydo bo‘lishidagi subyekt (tushuntiriluvchi) va predikatni (tushuntiruvchi) o‘zaro bog‘lovchi psixologik jarayonning hosilasi sifatida talqin etiladi⁸. Gap so‘zlar yordamida amalga oshiriladigan psixologik mulohaza, fikrlash sifatida namoyon bo‘ladi. Gap olimlar tomonidan tashkil etishning psixologik prinsipi deya ta‘rif beriluvchi predikativlikka asoslanadi⁹.

Lug‘aviy nuqtai nazardan predikativlik juda ko‘plab tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Ulardan A.Ye. Kibrik, A. Zaliznyak, Ye.V. Paduchev,

⁷Казарян Л.Г. О соотношении понятий «Предикативность» и «Предикативное отношение» в истории отечественного и зарубежного языкознания // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2002. – № 3. – С. 117.

⁸Потебня А.А. Полное собрание трудов: Мысль и язык. – М.: Лабиринт, 1999. – С. 128.

⁹Киосе М.И. Психологические и когнитивные синтаксические теории в отечественной лингвистике // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 6. Языкознание: Реферативный журнал, 2018. – № 3. – С. 156.

G.V. Makovich, Yu.N. Varfalomeyev, A.A. Kamalov kabilarning tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin. Ular o'z ilmiy ishlarida e'tiborni predikativlikning ma'noviy jihatiga qaratadilar va buning natijasida, predikatlar har xil semantik tiplarga ajratiladi.

Funksional nuqtai nazardan predikativlik unga yuklatilgan vazifa, ya'ni gapdagi ma'lumot orqali yetkazilgan xabarning voqelikka mosligini ifodalashdan kelib chiqqan holda tahlil etiladi. Bundan tashqari, mazkur yondashuv asosida predikativlikning bayon temasi/remasini amalga oshirishdagi funksional imkoniyatlari ham tadqiq etiladi.

Predikativlikda sintagmatik, mantiqiy, psixolingvistik, lingvopragmatik va boshqa xossalar o'zaro qorishib ketadi. Bu, o'z navbatida, ushbu ko'p qirrali hodisani tadqiq etish uchun kompleks, lingvosinergetik yondashuvdan foydalanishni oldindan belgilab beradi. Bunday tadqiqot predikativli munosabatlarni uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi iyerarxik aloqalarni hisobga olgan holda tizimli tahlil qilishni nazarda tutadi.

Predikativlik sintaksisning atamasi sifatida ko'p hollarda predikatsiya atamasi bilan almashtirilib qo'llanadi. Predikativlik va predikatsiya atamaları tilshunoslikka oid adabiyotlarda ba'zan bir narsani anglatadi, ba'zan farqlanadi. Bir xil ma'noni anglatganda, mazkur atamalar xabar qilinayotgan ma'lumotning voqelikka aloqadorligini ifodalash uchun xizmat qiladi. Predikatlik va predikatsiya atamalarini bunday alfozda qo'llash N.D.Arutyunova, V.Z.Panfilov, V.V.Bogdanov, A.Yu.Fomina va boshqalarning tadqiqotlarida kuzatiladi. Predikativlik va predikatsiya atamalarining farqli tushunchalarni anglatishi masalasiga kelsak, aytish joizki, tilshunoslik ilmida ularning qo'llanishida bir xillik mavjud emas, ya'ni bunda bir atamaning o'zidan hodisaning turli jihatlarini ifodalashda foydalaniladi.

Xususan, tadqiq etilayotgan masalaga doir ishlar tahlili predikativlik atamasining quyidagi ma'nolarni ifodalashda qo'llanishini ko'rsatdi:

1) gapning hosil qiluvchi asosiy belgisi bo'lib, gapning til iyerarxiyasi sintaktik qatlamining boshqa birliklaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyat hisoblanadi;

2) xabar qilinayotgan ma'lumotning gapning xossasi sifatida namoyon bo'luvchi voqelikka aloqadorligi;

3) xabar qilinayotgan ma'lumotning gap bo'lagi sifatida kesimga tegishli bo'lgan kesimlilik xossasi sifatida namoyon bo'luvchi voqelikka aloqadorligi;

4) gapning to'liqligini kompleks tarzda ta'minlovchi zamon, modallik va shaxs kabi grammatik kategoriyalarning xossalari;

5) qo'shma ot-kesim vazifasida maydonga chiquvchi ismlarning grammatik xossalari;

6) referensiyannig aynan o'zi, chunki predikativlik ham referensiyaga o'xshab xabar qilinayotgan ma'lumotning voqelikka aloqadorligidan darak berish;

7) sintaktik modallik.

Predikatsiya atamasi predikativlik atamasidan farqli ravishda, ko'p hollarda har qanday turdagi tarkibiy gapning bo'laklari orasidagi sintaktik munosabatlarni

ifodalaydi. Predikatsiya, umuman, gapga xos bo‘lib, yo ismlar yoki fe‘l shakllari vositasida yuzaga chiqadi. Bunda otlardan foydalanilganda munosabatlarda “zamon” tushunchasi mavjud bo‘lmaydi. Predikatsiya fe‘l shakllari vositasida ifodalanganda, u qo‘shimcha ravishda, nominativ funksiyani ham bajaradi, bunday holda fe‘l borliqni nomlash vositasini aniqlashtiradi¹⁰.

Sintaktik birliklarning predikatsiyani hosil qilish xususiyati predikatlik deb ataladi. Predikatlik bu – gap bo‘laklarining predikativ aloqalarga kirishish, ham obyektiv, ham subyektiv sintaktik modallikni ifodalashda ular orasida sintagmatik darajada o‘zaro muvofiqlik yuzaga keltirish xususiyatidir. Biz ega va kesimning o‘zaro sintagmatik aloqadorligi deb bilgan “kesimlik” tushunchasidan farqli ravishda, predikatlik gapda sintaktik modallikni ifodalashi bilan ham ajralib turadi.

Ko‘rinadiki, predikatsiya va predikatlik “predikativlik” tushunchasidan farq qiladi. Predikativlik o‘z ifodasini topishi nuqtai nazaridan gapda nafaqat o‘z tarkibida, odatda, kesimiga ega bo‘lgan predikatsiya va predikatlikni ifodalash vositalari orqali, balki gapning boshqa bo‘laklari, masalan, belgini ifodalovchi jumlar (atributiv strukturalar) orqali ham namoyon bo‘lishi mumkin. Predikativ munosabatlarning belgini ifodalovchi jumlar orqali ifodalanishida mavhumlikning mavjudligi tabiiy hol, shuningdek, aniqlovchi jumlar nutqda ko‘proq uchraydi, chunki til ortiqcha ma’lumotni yoqtimaydi va shundan kelib chiqqan holda, ularni ifodalovchi til vositalarini ishlatishdan qochadi.

“Predikativlik” tushunchasi asosida fikrlash kategoriyasi bo‘lgan predikat atamasi yotadi va grammatik kategoriya hisoblangan kesim bilan o‘zaro aloqadorlikda subyekt haqida aytilgan fikrni ifodalaydi, uning belgisini va boshqa predmetlarga aloqadorligini aniqlashtiradi. Gap predikatining kategorial-grammatik xossalarga boyligi uning odatdagi vazifalarini belgilab beradi va shu munosabat bilan ikki tushuncha farqlanadi: 1) grammatik kategoriya sanalgan kesimni namoyon qiluvchi sintaktik predikat; 2) sintaktik predikat, ya’ni kesimdan farqli o‘laroq, semantik predikat mantiqiy-ma’noviy kategoriya sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy predikatsiya nazariyalarida temporal belgi, ya’ni harakatning vaqt oralig‘idagi davomiyligi asosida predikatning bir nechta tiplari ajratib ko‘rsatiladi. Masalan, predikatlar ahamiyatli va zamondan tashqari (konstant), bularning ziddi o‘laroq, ahamiyatsiz va epizodik (yoki tasodifiy) predikatlar ham mavjud. Bu o‘rinda shuni alohida qayd etish lozimki, predikatlar sifatlar bilan bir qatorda, hodisalarni ham tavsiflay oladilar. O‘z navbatida, xossalari yoki sifatlar to‘laligicha zamonga bog‘liq bo‘lmasligi va ayni paytda nafaqat predmetni, balki, umuman, atrof-muhitni ham tavsiflashi mumkin. Hodisalarning predikati ko‘p jihatdan zamonga bog‘langan bo‘ladi, ular uchun subyektning zamonga aloqador qandaydir belgisi yoki olamning muayyan muddat davomidagi holatini qayd qilish muhimdir.

¹⁰ <https://bigenc.ru/linguistics/text/3175065>.

Ammo yuqorida keltirilganlar predikatlarning umumiy tasnifi bo‘lib, bundan tashqari, ushbu lisoniy birliklarning yanada turli xil tip farqlanadi: toyifa, xossalar, holatlar, protsessual (sarayoniy) va harakat predikatlari. Shuningdek, tugallanmagan va tugallangan predikatsiyalar ham farqlanadi: birinchisi, tayanch tildagi iboralarning ma’nolariga bog‘liq ravishda munosabatlarga kirishuvi uchun zarur bo‘lgan gapdagi o‘rniga aloqador bo‘lsa, ikkinchi predikatsiya gapdagi ushbu o‘rinning faktning o‘ziga mosligini tasdiqlash yoki inkor qilish bilan bog‘liq¹¹. Makondagi (mahalliy) belgisiga ko‘ra, ko‘rish, eshitish, hid, ta‘m va teginishga aloqador predikatlar ham farqlanadi.

Predikatlarning yanada batafsil va keng tipologiyasi predikatning ma’nolariga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi va shunga muvofiq subyektning quyidagi belgilari ko‘rsatiladi: agentivlik/noagentivlik, fazalilik/fazasizlik, statiklik (turg‘un)/nostatiklik, faollik/nofaollik, zamonda aloqadorlikning mavjud emasligi/mavjudligi, statiklik/faollik, davomiylik/nodavomiylik, vaqtinchalik istiqbol (jarayonlarning istiqbolliligi/istiqbolli emasligi, hodisalarning muntazamligi/ muntazam emasligi), nazorat qilinish/nazoratsizlik¹². Subyektga oid barcha belgilarning xilma-xilligi ifodalanayotgan predikativ ma’nolarga bevosita bog‘liq.

Dissertatsiyaning «**Rus va o‘zbek tillarida predikatsiyaning tarkibiy-semantik va kommunikativ-funksional xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobi rus va o‘zbek tillaridagi predikatlarni qiyosiy o‘rganish orqali ularning tarkibiy-ma’noviy va kommunikativ-funksional xususiyatlarini aniqlash, tahlil va tavsif qilishga bag‘ishlangan.

Rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiya, o‘z vazifasiga ko‘ra, ko‘p qirrali ekanligi bilan tavsiflanadi. Masalan, ma’no jihatdan: harakat, jarayon, holat, sifat, o‘rin, toyifa va boshqa predikativ ma’nolar ifodalanadi. Har ikkala tildagi kesim gapning tarkibiy tuzilmasiga kiradi, nuqt predmetining (subyektning) modallik va zamon belgisini ko‘rsatadi, yangilikni o‘z ichiga oladi, fe’lning tuslanuvchi shakli, otlar, sifatlar va boshqalar bilan ifodalanadi, egadan keyingi o‘rinni egallaydi va tarkibiy jihatdan egaga bo‘ysunadi.

Rus tilidagi gapning predikatsiyasida eganing nafaqat sintaktik, balki boshqa lisoniy sathlarga ham aloqador allomorf xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Masalan, ega va kesimni ifodalash usulini belgilab beruvchi morfologik darajadagi xususiyatlari ancha yorqin namoyon bo‘ladi. Ega uchun boshqa allomorf hodisalar orasida atoqli otlarda ot va kesimning o‘tgan zamonda moslashuvini ta’kidlash lozim. Ega jamlovchi ot orqali ifodalanganda ma’no ko‘chishi sodir bo‘lishi mumkinligi, ya’ni ko‘plik shakliga ega jamlovchi ot bilan kesimni faqat birlik shaklida qo‘llash. Rus va o‘zbek tillaridagi narsalarni ifodalovchi otlarning formal ko‘rsatkichlarimos kelmasligi ushbu tillardagi eganing allomorf ekanligidan dalolat beradi.

¹¹ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002– С. 394.

¹² Леонтьева Е.А. Леонтьева Е.А. Семантический признак как ключевой параметр типологии предикатов (на материале английского и русского языков) // Культура народов Причерноморья, 2006. – № 76. – С. 122-128.

Ega va kesim ma'nosidagi farqni ushbu talablarni so'roq gaplar tizimida umumlashtirish va aniqlashtirish yo'li bilan ko'rsatish mumkin: Predmet nima qilmoqda? U qanday? Kesim modallik va zamon belgisi bo'yicha tavsiflanadi va predmetning belgisi voqelik, ehtimol yoki xohish bo'lganda u yoki bu zamonda namoyon bo'ladi. Rus tilidagi kesimining kategorial (lisoniy, sintaktik, grammatik) belgilariga: harakat, holat, belgi, toyifalash va boshqalar kiradi; kesim uchun uning nutqiy ahamiyati, modallik va zamon jihati hamda ifoda usullari – kesimni bir so'z bilan ifodalash, bir nechta so'zlar bilan ifodalash muhim hisoblanadi.

O'zbek tiliga kesimning murakkablashgan shakllari xos emas, ammo o'zbek tilida sodda kesim fe'lli va otli kesim bo'lishi mumkin, sodda fe'l kesim esa sifat va ravishdosh bilan ifodalanishi mumkin. Fe'lning grammatik zamon shakllarining yasalishidagi o'ziga xoslik natijasida kelasi zamon analitizmi, hozirgi va o'tgan zamonlar ko'pma'noliligi vujudga keladi.

Murakkab ot kesimli ruscha jumlaning predikatlashuvi allomorf hisoblanadi, rus tilida uning predikat qismi qisqa sifat yoki sifatdosh bilan ifodalanadi, o'zbek tilida esa, ushbu shakl mavjud emas. Rus tilidagi gapning predikatlashuvi jarayonida qo'shma gap tarkibidagi ikki gapdagi kesimlarning tur va zamonda farqlanishini ta'kidlab o'tish zarur. O'zbekcha fe'lda tur ma'nosining (vid kategoriyasi) yo'qligi ularni rus tilida farqlash uchun kontrast yaratiladi. O'zbek tilida turga tegishli farqlar leksik vositalar va analitik shakllar yordamida ifodalanishini qayd etish o'rnlidir.

Umuman olganda, rus va o'zbek tillaridagi ega va kesimni ifodalash usullarining mos kelmasligining sabablari quyidagilar: o'zbek tilida jins (rod) grammatik kategoriyasining mavjud emasligi; o'zbek tilida ayrim kesim turlarining mavjudligi va mavjud emasligi; sodda kesim shakllarining tuzilishi va ifoda usuliga ko'ra xilma-xilligi, kesimning murakkablashgan shakllarining mavjud emasligi, fe'l turi o'rniga uning leksik muqobillarini qo'llash, zamon ma'nolarining polisemantikligi, ega va kesimning jinsda moslashuvining mavjud emasligi.

Rus va o'zbek tillarida predikatning gap turining shakllanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy kommunikativ-funksional tahlil shuni ko'rsatdiki, solishtirilayotgan tillardagi umumiy semantik va semantik-tarkibiy qonuniyatlarni hisobga olish zarur. Bir tomondan, bu gaplarni tuzish usullari, masalan, rus tilida kesim gapda har qanday o'rinda kelishi mumkin, o'zbek tilida esa kesim, odatda, gapning oxirida keladi. Misol uchun, *В котором часу вы завтра придете?* ruscha so'roq gapda kesimning holati aniq belgilangan emas, o'rnini o'zgartirish mumkin: *Вы придете завтра в котором часу? Вы завтра в котором часу придете? Завтра вы придете в котором часу?* O'zbek tilidagi so'roq gapda esa kesimning o'rne, odatda, o'zgarmas bo'ladi: Siz ertaga soat nechada kelasiz? (*В котором часу вы завтра придете?*). Ko'rinib turibdiki, rus tilidagi so'roq gapda so'roq ma'nosini ifodalashning fe'l-kesimga mantiqiy urg'u berish orqali amalga oshiriladigan variantlari ham bor.

Rus tilida mantiqiy urg'u gapning eng muhim bo'lagini o'ziga xos leksik urg'u bilan talaffuz qilish yo'li orqali ifodalanadi, bunda so'z o'z joyida qoladi

va tabiiyki, soʻzlar tartibi buzilmaydi. Mantiqiy urgʻuni ifodalashning ikkinchi yoʻli – soʻzni ajratib koʻrsatishning, birinchi usulga qoʻshimcha ravishda, soʻzni gap boshiga oʻtkazish, yaʼni soʻzlar tartibini oʻzgartirish hisobiga amalga oshirishdir. Rus tilidagi soʻroq gapda aniqlovchi va aniqlanmish soʻzlar alohida leksema, soʻzlar birikmasi, qoʻshma gapning ergashgan boʻlagi bilan ifodalanishi mumkin. Shunga koʻra rus tilidagi ushbu jarayonni oʻzbek tili bilan qiyoslash alohida ergash gaplar hamda ularga ekvivalent sifatdoshlarni solishtirish va soʻzlar tartibini hisobga olishni taqozo etadi: *Ты что не приезжаешь? Некогда. Что, Гульнара не здорова? Поправляется. Дома кто останется? Кто такой? Кто из вас?* Soʻroq intonatsiyasining tonalligi ham sifat nuqtai nazaridan, ayniqsa, ifodalaydigan maʼnolarining boyligi bilan farqlanadi. Masalan, rus tilidagi soʻroq intonatsiyasida soʻroqni anglatuvchi soʻzning urgʻuli boʻgʻinida ovoz toni keskin koʻtariladi. Soʻroq intonatsiyasining asosiy modifikatsiyalari tuzilmalarning alohida turlari va semantik guruhlarda (olmoshli va olmoshsiz) aniq namoyon boʻladi: soʻroq, tanlov va soxta soʻroqda, savolni tasdiqlash va inkor etishda, qayta soʻrashda; emotsional ohang bilan aniqlashtirish, harakatga undash, iltimos va taklif qilish, qarshi savol qoʻyish va emotsional reaksiyalarda. Baʼzi ruscha soʻroq gaplarda soʻroq faqat intonatsiya vositasida ifodalanadi.

Ilmiy adabiyotlarda morfologizatsiyaga uchragan soʻroq yuklamalariga va soʻroq olmoshlarga ega soʻroq gaplar hamda tarkibiy qismlarning maʼnosi ularning yigʻindisiga mos kelmaydigan frazeologiklashgan tuzilmaga ega soʻroq gaplar farqlanadi. Rus tilida soʻroq yuklamalar predikat modallikni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Rus tilidagi: *как а, ли/ль, не .. ли/не ...ль, никак, разве, неужели/неужель, ужель, что за, что, что ли, как* kabi soʻroq yuklamalari shu jihati bilan ajralib turadiki, ular gapga turli maʼnoviy rangbaranglik taqdim etadi, soʻzlovchining hissiyotlarini, aytilgan soʻzga munosabatini yetkazadi, yaʼni modallik xususiyatiga ega boʻladi.

Rus tilida soʻroq olmoshlariga ega soʻroq gaplarni oʻrganish natijasida yoyiq soʻroq gap tarkibidagi soʻroq olmoshi tushunchani toraytirish, uni maʼno jihatdan konkretlashtirish maqsadida aniqlashtiriladi. Soʻroq olmoshlarining har biri maʼnosi va vazifalari boʻyicha yetarli darajada shaffofdir. Ammo toʻliq oʻxshashlik yoʻq, chunki *кто, что* (kim, nima) soʻroq olmoshlarini almashtirish substantivlari diapazoni ancha farq qiladi. Bu lugʻatga, lugʻaviy zaxiraning dialogik muloqot (savol javob-replika) doirasida yetarlicha boʻlishiga bogʻliq. Rus tilidagi *какой, чей, который* (qaysi, kimning) kabi sifat soʻroq olmoshlari hamda *где, куда, откуда, почему, зачем, как* (qayerda, qayerdan, nimaga, qanday) kabi ravishlar bir xil sintaktik vazifada qoʻllanishi boʻyicha yuqoridagi soʻroq olmoshlariga yaqin turadi. Bundan tashqari, rus tilidagi soʻroq gaplarning iboralashgan turlarini ham nazardan qochirmaslik kerak, chunki savolning maʼnosi soʻroq gap shakli shartiga javob bermaydi: *Что с головой? Что с рукой? Что с Хикматом? Какими судьбами?*

(Boshing nima boʻldi? Qoʻling nima boʻldi? Hikmatga nima boʻldi? Qaysi shamol uchirdi?).

O'zbek tilidagi so'roq gaplar intonatsiyasi rus tilidagi so'roq gaplar intonatsiyasidan keskin farq qiladi. O'zbek tilida mantiqiy urg'u tushgan gap bo'lagi, odatda, kesimdan oldin keladi va biroz kuchaytirilgan leksik urg'u bilan talaffuz qilinadi: Kecha Toshkentdan mehmonlar kelishdimi? Mehmonlar kecha Toshkentdan kelishdimi? Toshkentdan mehmonlar kecha kelishdimi?. Ammo o'zbek tilidagi so'roq gaplarning qo'llanishini kuzatish shuni ko'rsatmoqdaki, o'zbek tilida so'roq faqat intonatsion-fonetik vositalar orqali, asosan, og'zaki nutqda ifodalaniladi: Xo'sh? Xizmat? Bo'lmaydi? Sabab? Nutqning kitobiy uslubida ko'proq so'roq yuklamalari va so'roq olmoshlari ishlatiladi.

O'zbek tilidagi so'roq gaplar, asosan, so'roq yuklamalari va so'roq olmoshlari yordamida hosil qilinadi. -mi so'roq yuklamasi barcha so'z turkumlari bilan qo'llanadi. U so'roq shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladi hamda o'zidan oldin kelgan so'z bilan qo'shib yoziladi: devormi? yaxshimi? shumi? o'shami? ozmi? ko'pmi? keldimi? kitob olib keldimi? -mi yuklamasiga ega so'z, odatda, gap oxiriga qo'yiladi, chunki so'roq nafaqat bevosita -mi oldida turgan so'zga, ya'ni predikatga, balki gapdagi barcha so'zlarga aloqador bo'lishi mumkin: Sen akangni ko'rdingmi? Ta'kidlash joizki, so'z predikatga emas, balki gapdagi boshqa so'zga aloqador bo'lsa, fikrning aniq va ifodali bo'lishi uchun ushbu so'z bevosita predikat oldiga qo'yiladi: Sen akangni ko'rdingmi? Akangni sen ko'rdingmi?

-mi so'roq yuklamasi antonimik bo'lib, ayiruvchi bog'lovchi ma'nosiga ham ega bo'lishi mumkin. Tarkibiy jihatdan ushbu ma'no gapdagi o'rin bilan belgilanadi: ayiruvchi ma'noga ega so'roq yuklamasi sifatida -mi doim gap oxirida keladi va asosan, predikat bilan birga keladi. -mi ayiruvchi bog'lovchi sifatida gapning o'rtasida keladi. -mi so'roq yuklamasi ekanmi, ekanmikin kabilar bilan birikib keladi. Bu turdagi so'roq gaplar savol mazmuniga qo'shimcha ma'no beradi, biror narsaga yoki kimsaga ishonch hosil qilish, sodir bo'layotgan hodisalar haqida fikr bildirish istagini anglatadi: Yaxshi ekanmi, ishqilib? Tuzalib qoldimikin?

O'zbek tilidagi so'roq gaplarning ikkinchi tarkibiy-semantik turi so'roq olmoshlariga ega so'roq gaplarda namoyon bo'ladi. So'roq olmoshlaridan kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? qachon? qancha? necha? nechta? nechanchi? ma'noviy ahamiyati va qo'llanishiga ko'ra, otlar, sifatlar, sonlar bilan kelib savolni anglatish uchun, shuningdek, sabab, vaqt, o'rin va boshqalar haqidagi savollarni ifodalash uchun guruhlariga ajratiladi.

So'roq olmoshlari bilan kelgan so'roq gaplarning tarkibiy-semantik turi rus tilida ham, o'zbek tilida ham so'roq olmoshining ma'nosi bilan belgilanadigan aniq va tiniq ifodalangan so'roq semantikasiga ega bo'ladi. Bu shu bilan izohlanadiki, rus va o'zbek tillari uchun so'roq olmoshlari doirasi chegaralab olingan. Ularning funksional diapazoni o'zaro mos keladi. Rus va o'zbek tillaridagi so'roq olmoshlarining semantizatsiyasini chog'ishtirish mumkin: кто, что, какой, чей, который va b., kim, nima, qanday, kimning, qaysi i b. Agar tillararo universallik ma'lum tuzilmalarda namoyon bo'lishi hisobga olinsa, so'roq olmoshlariga ega so'roq gaplarning ko'p uchraydigan tarkibiy-semantik

turlari to‘liqsiz va qisman ekvivalentlar deb hisoblanishi mumkin. Shuning uchun mazkur masalani o‘rganishda ruscha va o‘zbekcha so‘roq gaplarning shakli, grammatik valentligi va semantikasi haqidagi tushunchalar hisobga olinishi shart.

Dissertatsiyaning «**Rus va o‘zbek tillaridagi predikatsiyaning lingvokulturologik jihati**» deb nomlangan uchinchi bobida rus va o‘zbek tillarida predikatsiyani tadqiq qilishning lingvokulturologik asoslari belgilangan va predikatsiyaning milliy-madaniy o‘ziga xosligi ochib berilgan.

